

1. "Yerning tasviri" asarining muallifi kim?

- A) Abu Rayhon Beruniy
- B) Mahmud Koshg'ariy
- C) Yoqut Hamaviy
- D) Muhammad Xorazmiy

2. Qaysi andazalar yordamida tuzilgan xaritalarda burchaklar ham, maydonlar ham xatoliklar bilan tasvirlanadi?

- A) teng maydonli
- B) teng hajmli
- C) ixtiyoriy
- D) teng burchakli

3. Tog'larda balandlik tomon tabiat komplekslarining almashinib kelishi nima deb ataladi?

- A) ritmiklik
- B) zonallik
- C) sektorlik
- D) balandlik mintaqalanishi

4. Matnni o'qing.

"Materikda iqlim sharoiti faqat kenglik bo'ylab o'zgarib qolmasdan, balki g'arbdan sharqqa tomon ham o'zgaradi. Iqlimning bunday o'zgarishiga asosiy sabab, materikning g'arbiy qismi doimo Tinch okeandan keladigan iliq va nam dengiz havo massasi ta'sirida bo'lganligidir".

Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.

- A) Yevrosiyo
- B) Janubiy Amerika
- C) Avstraliya
- D) Shimoliy Amerika

5. Qaysi javobda Shimoliy Muz okeaniga tegishli bo'lgan dengiz nomi keltirilgan?

- A) Oxota
- B) Irlandiya
- C) Lazarev
- D) Chukotka

6. Matnni o'qing.

Ushbu okeanning ekvatorial mintaqasida iqlim sharoiti yil davomida kam o'zgaradi. Yuzadagi suv harorati 20–28 °C. Yillik yog'ingarchilik miqdori 2 000–3 000 mm ni tashkil etadi. Shunga mos tabiat kompleksi shakllangan.

Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.

- A) Hind
- B) Shimoliy Muz
- C) Atlantika
- D) Tinch

7. Qaysi tog'ning shimoliy yonbag'rida dasht, o'rmon-dasht, keng bargli o'rmonlar, aralash o'rmonlar, ignabargli o'rmonlar, subalp va alp o'tloqlari, eng balandda qor va muzliklar almashinib keladi?

- A) Himolay
- B) Tibet
- C) Alp
- D) Kavkaz

8. Matnni o'qing.

"Materikdagi subekvatorial iqlim mintaqasida yozda ekvatorial havo massalari ko'p yog'in keltiradi (800 — 2 000 mm). Qishda esa tropik havo massalari hukmronlik qiladi va havo quruq bo'lib, yog'in kam yog'adi. Bu mintaqada o'rtacha havo harorati yozda +24 °C, qishda esa 16 — 24 °C ni tashkil etadi". **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Yevrosiyo
- B) Avstraliya
- C) Janubiy Amerika
- D) Afrika

9. Solomon orollarida joylashgan vulqonni toping.

- A) Balbi
- B) Lamington
- C) Slamet
- D) Kerinchi

10. Yevrosiyo materigiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Yil fasllari yog'in miqdoriga qarab farqlanadi. Ekvatorial hududlarda past bosimli mintaqalar, tropik kengliklarda esa yuqori bosimli mintaqalarning tarkib topishi Quyoshning balandligiga bog'liq. Shunga binoan materik ustida ekvatorial, tropik va mo'tadil havo massalari harakatlanadi.
- B) Materikda iqlim sharoiti faqat kenglik bo'ylab o'zgarib qolmasdan, balki g'arbdan sharqqa tomon ham o'zgaradi. Iqlimning bunday o'zgarishiga asosiy sabab, materikning g'arbiy qismi doimo Tinch okeandan keladigan iliq va nam dengiz havo massasi ta'sirida bo'lganligidir.
- C) O'rmon-dasht va dasht zonalarining kashtan va qora tuproqlarida chalov, betaga, bizon o'ti eng ko'p uchraydi. Zonalarning shimoliy va sharqiy qismlarida qalin o'tlarning bo'yi 1,5 m ga yetadi. Asosiy hayvonlari bizon, bo'ri, tulki, kiyik, skuns, opossum, oqbo'shli burgut va boshqalardan iborat.

D) Savannalar zonasi subekvatorial iqlim mintaqalari hududidagi pasttekisliklarda, yassi tog'liklarda tarkib topgan. Bu zonada sernam savanna o'rmonlari, quruq savanna, cho'lga aylangan savanna, siyrak o'rmonli savanna va butazorli savanna tabiat komplekslari mavjud.

11. O'rta Osiyo hududida Arktika havo massasi uzoq vaqt turib qolishi natijasida o'lkaning qaysi qismida harorat $-35 -45^{\circ}\text{C}$ gacha pasayadi?

- A) shimoliy
- B) shimoli-sharqiy
- C) g'arbiy
- D) shimoli-g'arbiy

12. Matnni o'qing.

"Okrugning 500 metr balandlikkacha bo'lgan qismida cho'l mintaqasiga oid o'simliklardan rang, iloq, qo'ng'irbosh, no'xatak, shuningdek, shuvoq va boshqa o'simliklar o'sadi. Yirik daryo qayirlarida to'qay o'simliklari mavjud. Yerosti suvlari yer betiga yaqin bo'lgan joylarda sho'ralar o'sadi. Okrugning janubiy qismidagi qumloqlarda juzg'un, qum ilog'i, quyonsuyak kabi o'simliklar uchraydi".

Matndagi ma'lumotlar qaysi okrugga tegishli ekanligini toping.

- A) Qashqadaryo
- B) Farg'ona
- C) Surxondaryo
- D) O'rta Zarafshon

13. Kitob geologik qo'riqxonasida qanday o'simliklar muhofaza qilinadi?

- A) Zarafshon archasi, anzur piyoz, sharq chinori
- B) Piskom piyoz, tog' lolasi, beresklet
- C) archa, zirk, na'matak, itburun, chakanda
- D) qora terak, tog' piyoz, zirk, marmarak

14. "Okrugning shimoli-g'arbiy qismida O'zbekistondagi eng yirik ko'llar tizimi – Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi joylashgan. Bu ko'llar 1969–1970-yillarda Sirdaryo nihoyatda sersuv bo'lgan paytda Chordara suv omboridan juda katta hajmda suv tashlanganligi natijasida vujudga kelgan".

Ushbu ta'rif qaysi tabiiy geografik okrugga tegishli?

- A) Farg'ona
- B) Chirchiq-Ohangaron
- C) Mirzacho'l
- D) O'rta Zarafshon

15. G'uzordaryoga oid ma'lumotlar berilgan javobni toping.

A) Uzunligi 115 km bo'lib, Hisor tizmasidagi Botirboy va Seversev muzligidan boshlanuvchi Botirboy bilan Xonaqasuv irmog'ining qo'shilishidan vujudga keladi. U qor-muzliklarning erishidan to'yinadi.

B) Uzunligi 68 km bo'lib, Chaqchar tog'idan boshlanadi. U qorlarning erishidan va yerosti suvlaridan to'yinib, o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 5,90 m kub bo'lib, uning 63,9 foizi mart — iyun oylarida oqadi.

C) Uzunligi 108 km bo'lib, Hisor tizmasining janubi-g'arbiy yonbag'ridan boshlanadi. U qorlarning erishidan to'yinib, 61,6 foizi mart — iyun oylarida oqadi.

D) Hisor tizmasining Oqota va Sherdog' tog'lari orasidagi buloqlardan boshlanib, uzunligi 57 km ni tashkil etadi. U qor va muz erishidan to'yinib, suvi mart — iyun oylarida ko'payadi.

16. Mamlakatimizdagi quvvati 1 000 MW dan katta IESlarni toping.

- A) Talimarjon va Navoiy
- B) Toshkent va Angren
- C) Sirdaryo va Farg'ona
- D) Taxiotosh va Navoiy

17. "Viloyatga Oloy va Turkiston tizmalarining tog'oldilari kiradi. Isfayram, Shohimardon, So'x, Isfara daryolarining dehqonchilikda ahamiyati katta. Norin bilan Qoradaryodan bir necha sug'oruv kanallari chiqarilgan. Viloyat yalpi sanoat mahsulotiga ko'ra faqat Toshkent viloyatidan keyingi o'rinda turadi". Ushbu ta'rif qaysi viloyatga tegishli?

- A) Andijon
- B) Jizzax
- C) Farg'ona
- D) Namangan

18. AQSHning qaysi shtatlari avtomobilsozlik sanoati rivojlanganligi bilan ajralib turadi?

- A) Jorjiya, Florida
- B) Kaliforniya, Vashington
- C) Texas, Arizona
- D) Michigan, Illinoys

19. 2017-yil holatiga ko'ra, jahon yalpi milliy mahsulotining 28%i qaysi iqtisodiy markaz hissasiga to'g'ri keldi?

- A) G'arbiy Yevropa
- B) Xitoy
- C) Yaponiya
- D) Shimoliy Amerika

20. Jami iste'moldagi go'shtning 20 foizga yaqini qaysi chorvachilik tarmog'i hissasiga to'g'ri keladi?

- A) qoramolchilik
- B) baliqchilik
- C) qo'ychilik
- D) parrandachilik

21. Arablar va berberlar Afrikaning qaysi subregionida istiqomat qiladi?

- A) Shimoliy Afrika
- B) Sharqiy Afrika
- C) Markaziy Afrika
- D) G'arbiy Afrika

22. Matnni o'qing.

"Mamlakat ko'mir, neft, tabiiy gaz, temir, turli rangli metallar rudalari, mineral tuzlarning yirik zaxiralariga ega. Ayniqsa, mamlakatning g'arbiy tog'li hududlari mineral resurslariga boy. Ammo sanoat ishlab chiqarishining hajmi yirikligi tufayli mamlakat mineral xomashyoning ko'p turlarini import qiladi. Hududi yirikligi uchun tabiiy sharoiti juda xilma-xil".

Matndagi ma'lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.

- A) Rossiya
- B) Kanada
- C) AQSH
- D) Xitoy

23. Matnni o'qing.

"Subregion uchun, asosan, subekvatorial va tropik iqlim xosdir. Subregion qadimdan Hindiston va turli arab davlatlari bilan savdo aloqalarini o'rnatib kelgan. Boshqa subregionlardan farqli ravishda bu mintaqada mineral resurslarga nisbatan kambag'al ekanligi bilan ajralib turadi. Asosan, tropik qishloq xo'jaligi rivojlangan bo'lib, jahon bozoriga kofe, choy, kokos palmasi mahsulotlari, turli ziravorlar olib chiqadi". **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.**

- A) Sharqiy Afrika
- B) Janubiy Afrika
- C) Janubi-sharqiy Osiyo
- D) Shimoliy Afrika

24. Kanada tabiiy resurslariga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Mamlakatda neft, ko'mir, temir rudasi, boksit, nikel, uran, olmos va boshqa foydali qazilmalarning yirik konlari mavjud. Hududining katta qismi ekvatorial va subekvatorial iqlim mintaqalarida joylashganligi sababli iqlim sharoitiga yuqori darajadagi namgarchilik va issiqlik xosdir.
- B) Mamlakatning sharqiy qismi qadimgi platformada joylashgan bo'lib, asosan, tekislik

va kuchli parchalangan yassi tog'liklardan iborat bo'lsa, Tinch okeanga tutash g'arbiy qismi baland Kordilyera tog'lari bilan band. Hududida uran, temir, nikel, mis, qo'rg'oshin, rux, oltin, neft va tabiiy gazning yirik konlari mavjud.

C) Mamlakat ko'mir, neft, tabiiy gaz, temir, turli rangli metallar rudalari, mineral tuzlarning yirik zaxiralariga ega. Ayniqsa, mamlakatning g'arbiy tog'li hududlari mineral resurslariga boy. Ammo sanoat ishlab chiqarishining hajmi yirikligi tufayli mamlakat mineral xomashyoning ko'p turlarini import qiladi. Hududi yirikligi uchun tabiiy sharoiti juda xilma-xil.

D) Hududi, asosan, tekislik va kuchli parchalangan platolardan iborat. Mamlakat xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Temir, mis, nikel, uran, boksit rudalari, ko'mir, oltin, olmos zaxiralari bilan jahon miqyosida alohida ajralib turadi.

25. Qaysi geotizim o'zidan katta bo'lgan boshqa geotizimlarga nisbatan tashqi kuchlar ta'siriga beriluvchan va o'zgaruvchan bo'ladi?

- A) joy
- B) urochishe
- C) maydon
- D) fatsiya

26. Konfutsiylik dini qaysi davlatda keng tarqalgan?

- A) Yaponiya
- B) Koreya Respublikasi
- C) Mongoliya
- D) Xitoy


27. Quyidagi javoblar ichidan noto'g'ri fikrni toping.

- A) Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida buddizm dini keng tarqalgan.
- B) Sintoizm dini Yaponiyada keng tarqalgan.
- C) Eron, Ozarbayjon, Iroq davlatlarida islom dinining shialik yo'nalishi keng tarqalgan.
- D) Hindiston, Nepal, Shri-Lanka davlatlarida buddizm dini keng tarqalgan.

28. Quyidagi qaysi mintaqada urbanizatsiya darajasi 81% ni tashkil etadi?

- A) Lotin Amerikasi
- B) Yevropa
- C) Shimoliy Amerika
- D) Avstraliya va Okeaniya

29. Ushbu yozuvsiz xaritada Kara va Sharqiy Sibir dengizlari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?




- A) 2, 4
- B) 1, 3
- C) 2, 3
- D) 1, 4

30. Shimoliy Amerika materigining yozuvsiz xaritasida 2 va 4 raqamlar bilan qaysi tog' cho'qqilari tasvirlangan?



- A) Uitenhage, Elbert
- B) Robson, Reynir
- C) Denali, Uitenhage
- D) Robson, Elbert

31. O'rta Osiyoning yozuvsiz xaritasida Mo'yinqum qumlari qaysi raqam bilan tasvirlangan?



- A) 1
- B) 2
- C) 3
- D) 4

32. Chirchiq-Ohangaron tabiiy geografik okrugining yozuvsiz xaritasida 1 va 2 raqamlar bilan qaysi tog' tizmalari tasvirlangan?



- A) Ugom va Maydontol
- B) Qorjontov va Talas Olatog'i
- C) Piskom va Ugom
- D) Qorjontov va Piskom

33. O'zbekistondagi issiqlik elektrostansiyalari jadvalidan noto'g'ri qatorlarni toping.

N _o	Quvvati 1000 MW dan katta	Quvvati 1000 MW dan kichik
1	Toshkent	Angren
2	Farg'ona	Muborak
3	Talimarjon	Navoiy
4	Sirdaryo	Taxiatosh

- A) 1, 3
B) 2, 4
C) 1, 4
D) 2, 3

34. Davlatlar va ularning pul birliklari mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.

N _o	Davlatlar	Variantlar	Pul birligi
1	Madagaskar	a	Nayra
2	Nigeriya	b	Rand
3	JAR	c	Frank


- A) 1-c, 2-b, 3-a
B) 1-a, 2-c, 3-b
C) 1-b, 2-c, 3-a
D) 1-c, 2-a, 3-b

35. Tog' burmalanishlari va ularda hosil bo'lgan tog'lar va o'lkalar mos ravishda to'g'ri keltirilgan javobni toping.

N _o	Tog' burmala nishlari	Variantlar	Ko'tarilgan tog'lar va o'lkalar
1	Alp	a	Qozog'iston past tog'lari
2	Mezozoy	b	Yava orolining shimoli
3	Gersin	c	Shimoliy Afrika
4	Kaledon	d	O'rta dengiz sohillari

- A) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b
B) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a
C) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c
D) 1-c, 2-d, 3-b, 4-a

36. Quyidagi chizmadan foydalanib, B nuqtaning mutlaq balandligini aniqlang.




- A) 780 m
B) 980 m
C) 880 m
D) 1080 m

37. Toshkentda (IV soat mintaqasi) soat 14⁰⁰ bo'lsa, Tokioda (IX soat mintaqasi) soat necha bo'ladi?

- A) 15⁰⁰
B) 17⁰⁰
C) 19⁰⁰
D) 10⁰⁰

38. Quyidagi chizmadan foydalanib, o'rtacha yillik haroratni aniqlang.



- A) +13,9 °C
B) +13,4 °C
C) +13,0 °C
D) +12,8 °C


39. Sport inshootining uzunligi 20 metr, eni 10 metr, balandligi 6 metr bo'lsa, ushbu xonadagi havoning og'irligini toping.

- A) 1,596 t
B) 1,613 t
C) 1,2 t
D) 1,8 t

40. "O'lka hududida arktika sahrolari, tundra va o'rmon-tundra zonalarining landshaftlari tarkib topgan. Asosiy tuproqlari tundra-gleyli va torfli gleyli, botqoq va podzol tuproqlardir. O'lkaning shimoliy qismida ko'p yillik muzloq yerlar katta maydonni egallaydi". Ushbu ta'rif Yevrosiyoning qaysi o'lkasiga tegishli?

- A) Uzoq Sharq
B) Sharqiy Yevropa
C) G'arbiy Sibir
D) Sharqiy Sibir

41. 2017-yil ma'lumotiga ko'ra ushbu diagrammaning 4-ustunidagi ko'rsatkich O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdosida eksport ko'rsatkichlari qaysi davlatga tegishli ekanligini aniqlang (umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida)?



- A) Qozog'iston
- B) Eron
- C) Turkiya
- D) Rossiya

42. "Hududining sharqiy qismida Drakon tog'lari, janubida esa Kap tog'lari joylashgan. Mamlakatning shimoliy va markaziy qismlari Veld platosi bilan band, g'arbiy hududlari esa tekislik relyefi bilan ajralib turadi". Ushbu ta'rif qaysi davlatga tegishli?

- A) Namibiya
- B) Zambiya

- C) Janubiy Afrika Respublikasi
- D) Mozambik

43. 2017-yil Navoiy viloyatining Nurota tumanida tug'ilganlar soni 1943 kishini, vafot etganlar soni 454 kishini tashkil etgan bo'lsa, aholining tabiiy ko'payish ko'rsatkichi qanchani tashkil etgan?

- A) 1612 kishi
- B) 1544 kishi
- C) 2397 kishi
- D) 1489 kishi

44. 2019-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining shahar aholisi 16 805 ming kishini, qishloq aholisi 16 449 ming kishini tashkil qildi. O'zbekistonning urbanizatsiya darajasini toping.

- A) 49,5 %
- B) 49,9 %
- C) 50,5 %
- D) 51,1 %

45. 1991–1992-yillarda Yugoslaviyaning parchalanishi natijasida qaysi davlatlar mustaqil bo'ldi?

- 1) Serbiya; 2) Makedoniya; 3) Albaniya; 4) Xorvatiya; 5) Slovakiya; 6) Bosniya va Gersegovina; 7) Sloveniya.
- A) 1, 3, 5, 7
- B) 2, 4, 6, 7
- C) 1, 4, 5, 6
- D) 2, 3, 5, 6